



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 12 (14)
2025**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 12-son 2025 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

12

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

Юлдашев Ш.Г. Редкоземельные металлы в новой геоэкономике: глобальные стратегии и приоритеты развития республики Узбекистан.....	7
Tursunov A.M. Совершенствование экономических механизмов функционирования отрасли.	18
Umurzakova Z.S. Sanoat korxonalarida reklama faoliyati samaradorligini aniqlashning uslubiy jihatlari.....	21
Axunov M.A. Korxonalarda raqobatbardoshlikni baholash uchun tanlangan omillar.....	24
Исраилова Д.К. “Аёллар дафтари” маҳаллабай тизими - аёллар бандлиги ва фаровонлигини таъминлаш омили сифатида.....	28
Шокирова Г.М. Критерии разделения целевой аудитории в сфере цифрового маркетинга.....	33
Vaxtohonova D.N. Bank omonatlari bo‘yicha marketing strategiyalari va ularning real daromadlikka ta’siri.....	36
Xasanova X.F. Investitsilar hisobiga asoslangan xolatda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari tashkil etish tartibi.....	41
Бегимова Д.К. Разработка отраслевых стратегий в Узбекистане.....	45
Mirzayev B.S. CBDC joriy etilishining moliyaviy barqarorlikka ta’siri: imkoniyatlar va xatarlar....	50
Mirzarahimova A.A. Raqamli texnologiyalar asosida sanoat korxonalarida samaradorlikni oshirish yo‘nalishlari.....	53
Азимов О.Т. Ҳалол молиялаштириш инструменти сифатида мурабаха: анъанавий кредит билан қиёсий таҳлил.....	56
Халмирзаев А.А. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги ихтисослашувини такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари.....	62
Шоабдурахимова М.М. Повышение производственной эффективности на предприятиях электронной промышленности на примере Artel Electronics (Узбекистан).....	68
Xolmuratov O.T. Futbol maktablarimiz rivojlanishida xorij mamlakatlari menejmenti va marketingi tajribasi.....	72
Yarashev M.O., Nabieva S.A. Aksiyadorlik jamiyatlarini asosiy va moliyaviy faoliyati samaradorligini oshirish yo‘llari.....	76
Кабилова К. Тадбиркорлик соҳасида коррупциянинг олдини олиш амалиётининг бугунги ҳолати таҳлили.....	80
Махмудова С. Бюджет соҳасини коррупциядан ҳимоя қилишнинг иқтисодий ва ҳуқуқий чоралари.....	85
Захидова Ш.Ш. Университет барқарорлигини таъминлашда унинг фаолиятини халқаро стандартларга мос келадиган тартибда такомиллаштириш.....	89
Saidaxmedov N.X. Raqamli texnologiyalar asosida engil sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirish mexanizmlari.....	97
Усманова С.С. Влияние государственной поддержки и регулирование на развитие инноваций на промышленных предприятиях.....	100
Madrahimov U.A. Iqtisodiy o‘shish va kapitaldan samarali foydalanishni optimallashtirish yo‘nalishlari.....	104
Джалилов Д.А. Капиталнинг ялпи ички маҳсулотдаги улушини баҳолаш.....	108
Султанова Л.Ш. Абсорбционная способность как медиатор трансформационного экономического роста: теоретические основы.....	111
Mahmudov Sh.N. Location and development of industrial sectors in the regions.....	115
Ustadjalilov D.R. O‘zbekistonda klasterlarni rivojlantirishning institutsional asoslari transformatsiyasi: direktiv modeldan bozor tamoyillariga.....	119
Гайбуллаев Ф. Олий таълимда коррупцияга ўрин бўлмаслиги керак!.....	125
Abdurazakova F.D., Normurodov X.E. Aholi moliyaviy savodxonligi va moliyaviy madaniyati o‘rtasidagi oshirish imkoniyatlarini baholash.....	129
Muxtarov M.M. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida sanoat klasterlarini shakllantirish modellari: O‘zbekiston uchun istiqbollar.....	136
Ro‘zmatov B.Z., Shodiyeva N.H. Turistik infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha xalqaro tajriba va uning taqqoslovchi tahlili.....	140

Rahmatova N.A., Mustafayeva H. O‘zbekistonda pensiya ta‘minoti tizimining muammolari va hal etish yo‘llari.....	147
Ахмедов Х. Тинчлик ва хавфсизлик — барқарорлик, иқтисодий ўсиш ва фаровонлик гарови.	154
Boboyev A.Ch. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish yo‘nalishlari.....	159
Исраилов З.А. Яшил иқтисодиёт технологиялари: халқаро тажриба ва қиёсий таҳлил.....	165
Ikromov A.Sh. Mahalliy korxonalarda mahsulot raqobatbardoshligini boshqarish amaliyotining o‘ziga xos xususiyatlari.....	169
Ҳалмирзаев А.А., Қодиров Б.Ш. Ёшлар бандлигини таъминлашнинг хорижий тажрибалари.....	175
Elmurodov Sh.Sh. A framework for integrating fiscal risks into the assessment of regional financial security.....	183
Axmadjonov S.S. Tadbirkorlik va biznesni qo‘llab – quvvatlashni baholash mezonlari.....	188
Sabirova Z.U. Sanoat va sanoat korxonalarining raqamli transformatsiyasi jarayonlarini tahlil qilishga uslubiy yondashuv.....	192
Pardayev T.N., Alimuxamedov Sh.R. Chetdan olib kelinayotgan tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashni takomillashtirishning ayrim masalalari.....	197
Кадыров А., Исхаков А.К., Турсунова Н.Х. Реализация механизма стратегического управления акционерного общества «Узавтосаноат» на основе прогнозирования его развития.....	203
Zoxidov T.M. Moliyaviy hisobotni buxgalteriya hisobining milliy standartlaridan (BHMS) moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o‘tkazishning muammolari va yechimlari.....	211
Nabiyeva N.M. Turizm xizmatlari bozorida hududiy destinatsiyalar samaradorligini o‘rganish.....	216
Sharofiddinov Sh.U. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda mhxs asosida tuzilgan moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni axborot manbai sifatidagi afzalliklari.....	221
Nurmatov Z.Sh. O‘zbekiston respublikasida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini (MHXS) joriy etishning iqtisodiy ahamiyati va amaliy dolzarbligi.....	225
Содиқов А.М., Зокиров С.С. Саноатни модернизациялаш ва диверсификациялашнинг янги стратегияси.....	230
Narmanov U., Ikromova S. Fond bozorlariga xorijiy investorlarni jalb qilishni rag‘batlantirish yo‘nalishlari.....	238
Qutbiddinov A.B. Samarali faoliyat imkoniyatlarini amalga oshirishda boshqaruv xodimlari qobiliyatlaridan foydalanish darajasi va uni oshirish imkoniyatlari.....	241
Qayumova Sh.S. Mahalliy xomashyo bazasiga ega sanoat korxonalarida investitsiya samaradorligini belgilovchi omillar va ularni oshirishning vertikal integratsiya asosidagi optimallashtirilgan modeli.....	246
Turebekov A.A. Ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy sifatining tahlili.....	252
Kurbanova M.N., Azizov A.A. Qadimgi klassik iqtisodiy maktablarning shakllanishi va ularning zamonaviy iqtisodiyot rivojlanishiga ta‘siri.....	255
Samadova G.S. O‘zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlarning iqtisodiy o‘shishga ta‘siri.....	259
Абдуллаева Р. Инклюзив тadbirkorликнинг моҳияти ва хориж тажрибаси.....	264
To‘uchiyeva B.V. Oziq-ovqat sanoati korxonalarini barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqarishning dolzarbligi.....	268
Amnah Saeed J Alhindi The role of financial resources in ensuring corporate financial stability.....	272
Fayziyev O.R. O‘zbekistonda baliqchilik klasterlarini moliyalashtirishning hududiy va tarmoq xususiyatlari.....	276
Алимов Р.А., Султанова Л.Ш. Абсорбционная способность и искусственный интеллект: многоуровневая модель и фигура нового интеллектуала.....	280
Teshayev Z.J., Muxitdnov Sh.X. Logistika xizmat ko‘rsatish korxonalarini resurslaridan foydalanishning hududiy iqtisodiy rivojlanishiga ta‘siri.....	284
Xaydarov X.U., Raxmonov D.R. 1907-yilgi moliyaviy inqiroz: sabablari, kechishi va jahon moliya tizimiga ta‘siri.....	288
Солижонов М.А. Ўзбекистон монетар сиёсатининг савдо балансига таъсирини баҳолаш....	292
Rejarov X.X. Davlat xarajatlarining samaradorligini baholash mexanizmlari.....	297

RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASI ASOSIDA SANOAT KLASTERLARINI SHAKLLANTIRISH MODELLARI: O‘ZBEKISTON UCHUN ISTIQBOLLAR

МОДЕЛИ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ КЛАСТЕРОВ НА ОСНОВЕ ОПЫТА РАЗВИТЫХ СТРАН: ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА

MODELS OF FORMING INDUSTRIAL CLUSTERS BASED ON THE EXPERIENCE OF DEVELOPED COUNTRIES: PROSPECTS FOR UZBEKISTAN

Muxtarov Maxmudjon Marifovich

Andijon davlat texnika institute “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti.

Annotatsiya

Ushbu maqolada rivojlangan mamlakatlar – jumladan AQSh, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya va Xitoy kabi davlatlar tajribasi asosida sanoat klasterlarini shakllantirish va boshqarish modellari tahlil qilinadi. Xususan, ularning sanoat siyosati, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari, innovatsion infratuzilma yaratishdagi yondashuvlari hamda hududiy ixtisoslashuv asosida klasterlarni qo‘llab-quvvatlash usullari o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: sanoat klasteri, rivojlangan mamlakatlar tajribasi, klaster modeli, ixtisoslashuv, innovatsion rivojlanish, davlat-xususiy sheriklik.

В данной статье рассматриваются модели формирования и управления промышленными кластерами на основе опыта развитых стран - таких как США, Германия, Япония, Южная Корея и Китай. В частности, анализируются их промышленная политика, механизмы государственно-частного партнёрства, подходы к созданию инновационной инфраструктуры и методы поддержки кластеров на основе региональной специализации.

Ключевые слова: промышленный кластер, опыт развитых стран, кластерная модель, специализация, инновационное развитие, государственно-частное партнёрство.

This article examines the models of formation and management of industrial clusters based on the experience of developed countries such as the United States, Germany, Japan, South Korea, and China. In particular, it analyzes their industrial policy, mechanisms of public-private partnership, approaches to creating innovation infrastructure, and methods of supporting clusters based on regional specialization.

Key words: industrial cluster, experience of developed countries, cluster model, specialization, innovation development, public-private partnership.

Hozirgi global iqtisodiyot sharoitida sanoat sohasida raqobatbardoshlikni oshirish va iqtisodiy o‘rishni ta’minlashda klasterlashuv juda muhim rol o‘ynaydi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi sanoat klasterlarini shakllantirishda muvaffaqiyatli modellarni taqdim etib, ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi samarali ta’sirini namoyon etadi. O‘zbekistonda sanoatni rivojlantirish va innovatsiyalarni joriy qilish maqsadida klasterlashuvning ahamiyati tobora oshib bormoqda. Ammo mamlakatimizda klasterlarni shakllantirish va ularni samarali boshqarish bo‘yicha integratsiyalangan modellar yetishmaydi. Shu bois, rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganish va ularning tajribalarini mahalliy sharoitga moslashtirish orqali O‘zbekiston sanoat klasterlarining barqaror rivojlanishi va iqtisodiy samaradorligini oshirish istiqbollari muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, to‘qimachilik, agrosanoat, oziq-ovqat, avtomobilsozlik va IT sohalarida klasterlarni shakllantirish orqali qo‘shimcha qiymat zanjirini yaratish, eksport hajmini ko‘paytirish va aholi bandligini oshirish imkoniyatlari mavjud. Bu esa mamlakatimizda sanoat tarmoqlarining barqaror o‘rishini ta’minlash,

hududiy iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirish va global bozorda O‘zbekistonning raqobatbardoshligini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sanoat klasterlari va ularning iqtisodiyotdagi ahamiyati haqida ilk nazariy asoslar Maykl Porterning “The Competitive Advantage of Nations” (1990) asarida yoritilgan. Muallif klasterlar raqobat muhitini kuchaytiradi, innovatsiya jarayonlarini rag‘batlantiradi va qiymat zanjiri orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini baholagan bo‘lsa, P.Krugman, klasterlarning hududiy rivojlanish, kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash hamda xalqaro raqobatbardoshlikka ta’siri tadqiq qilganlar [4]. Demak sanoat klasterlarini rivojlantirish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash va qiymat zanjirini samarali tashkil qilish uchun muhim omil sifatida qaralishi lozim. N. Grashof klasterlar odatda innovatsiyalar va samaradorlikka turtki bo‘lsada, foyda ma’lum firma darajasi va mintaqaviy dinamikaga bog‘liq ekanligini tadqiq qilgan bo‘lsa [5], E. Giuliani, C. Pietrobelli, R. Rabellottilar Italiyadagi Biella to‘qimachilik klasterida kuchli institutsional qo‘llab-quvvatlashdan foydalanayotgan firmalarning xalqaro bozorlarga muvaffaqiyatli chiqish ehtimoli 40 foiz ko‘proq ekanligini aniqlagan bo‘lib, klasterda mahsulotlarni loyihalash va ishlab chiqarish texnikasida innovatsiyalar ahamiyati va ishchi xodimlar bilim ko‘nikmalarini uni amalga oshirishdagi ahamiyatini o‘rganganlar [6]. J. Alegre, R. Chiva Linkinglar klaster natijalariga innovatsion salohiyat omili va korxonalar o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlik mavjudligini baholagan [7]. Yuqoridagi ilmiy manbalar klasterlar faoliyatining innovatsion jarayonlarni rag‘batlantirishda, korxonalar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishda va raqamlashtirishni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, klasterlarning samaradorligi firma darajasi, mintaqaviy shart-sharoitlar va institutsional qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq. Bu tadqiqotlar klasterlar konsepsiyasini amaliyotda samarali qo‘llash va ular orqali iqtisodiy o‘shishni ta’minlash uchun innovatsion va raqamli omillarni kompleks tarzda inobatga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasida klasterlar faoliyati o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ayniqsa AQShda klaster tizimi kuchli raqobat muhiti sharoitida shakllangan. Mazkur tizimning asosiy maqsadi - mahsulot tannarxini pasaytirish, ishlab chiqarish hajmini oshirish hamda korxonalarining innovatsion salohiyatini kengaytirish orqali bozor raqobatbardoshligini ta’minlashdan iboratdir. AQShda faoliyat yuritayotgan korxonalarining qariyb 50 foizi klasterlar tarkibida ishlaydi va ularning hissasiga mamlakat yalpi ichki mahsulotining 60 foizi to‘g‘ri keladi. Bu esa klasterlash tizimining iqtisodiy samaradorligini va uning milliy iqtisodiyotga qo‘shayotgan hissasini yaqqol namoyon etadi.

Yaponiyada klasterlar faoliyatining xususiyati shundaki, ular asosan yirik texnologik kompaniyalar atrofida shakllanadi va bu kompaniyalar kichik va o‘rta korxonalar, ilmiy-tadqiqot muassasalari hamda ta’lim muassasalari bilan uzviy hamkorlikda faoliyat yuritadi. Klasterlar, ayniqsa, mikrosxemalar, robototexnika va nanotexnologiyalar sohalarida muvaffaqiyatli rivojlangan bo‘lib, mamlakatning innovatsion salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda [8]. Xitoyda klasterlashtirish siyosati asosan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali yirik sanoat korxonalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Ushbu yondashuv orqali mamlakatda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, yuqori texnologik ishlab chiqarish tarmoqlarini shakllantirish va ichki hamda tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni ta’minlash imkoni yaratilmoqda. Shu bilan birga, klasterlar atrofida logistika, ta’lim va ilmiy-tadqiqot infratuzilmalari faol rivojlanmoqda [9].

Yevropa Ittifoqida klasterlar tarmog‘i keng rivojlangan bo‘lib, u yerda faoliyat yuritayotgan klasterlar soni 2 mingdan ziyoddir. Ushbu klasterlarda band bo‘lgan ishchi kuchi umumiy mehnat bozori salmog‘ining taxminan 39 foizini tashkil qiladi. Masalan, Germaniya misolida sanoat sohasi faoliyati ta’lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlari bilan mustahkam integratsiyalashgan hamkorlik asosida olib boriladi. Bundan tashqari, tarmoq klasterlari doirasida yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni sanoat amaliyotiga samarali tatbiq etishga katta e’tibor qaratilmoqda

Bugungi kunda klasterlar faoliyatida innovatsion jarayonlarning faollashishi, korxonalar o‘rtasida samarali hamkorlik va raqamli texnologiyalarni joriy etish uchun muhim platforma hisoblanadi. Klasterlarning samaradorligi faqat innovatsion imkoniyatlarga emas, balki korxonalar o‘lchami, mintaqaviy xususiyatlar va institutsional yordamning darajasiga ham bog‘liq. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar va transformatsiya jarayonlari klasterlarning ishlash samaradorligini

oshirishda muhim omil hisoblanadi. Xalqaro tajribalarga nazar tashlaganda, AQShda klasterlar qat’iy raqobat muhitida shakllanib, YaIMning katta qismi ular hissasiga to’g’ri keladi. Yaponiyada esa klasterlar yirik korxonalar atrofida tuzilgan bo’lib, yuqori texnologiyalar sohasiga yo’naltirilgan. Xitoyda klasterlashtirish xorijiy investitsiyalar va texnologiyalarni joriy etishga asoslangan. Yevropa Ittifoqida esa klasterlar sanoat, ta’lim va ilmiy tadqiqotlarning integratsiyasiga yo’naltirilgan va yangi texnologiyalarni yaratishga katta ahamiyat qaratiladi. Italiya va Portugaliyada esa klasterlarning rivojlanishi sanoat hududlari va ilmiy-iqtisodiy munosabatlarga bog’liq.

Bugungi kunda klasterlar faoliyatida innovatsion jarayonlarni faollashtirish, korxonalar o’rtasida samarali hamkorlik va raqamli texnologiyalarni joriy etish uchun muhim platforma hisoblanadi. O‘zbekistonda to’qimachilik, mashinasozlik va oziq-ovqat sanoati kabi tarmoqlarda klasterlar tashkil etish orqali innovatsion imkoniyatlarni oshirish, korxonalar o’lchami va hududiy xususiyatlariga moslashtirish, va raqamli transformatsiya va institutsional asosida klasterlar samaradorligini sezilarli darajada oshmoqda.

Mamlakat hududiy tuzilishi va mavjud tabiiy hamda iqtisodiy resurslari to’qimachilik klasterlarini rivojlantirish uchun qulay hisoblanib, to’qimachilik sanoati klasterlari, avvalo, qishloq xo’jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga yo’naltirilgan. Mamlakatda 2018-2024-yillar davomida O‘zbekiston Respublikasi bo’yicha 134 to’qimachilik klasterlar faoliyat yuritgan bo’lib, 2024-yilda to’qimachilik sanoatidagi ishlab chiqarish hajmi 89,5 trln so’mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 11,1 foiz o’sish kuzatilgan. 2024-yilda to’qimachilik mahsulotlari eksporti 2,87 milliard dollarni tashkil etgan bo’lib, bu mamlakat umumiy eksport hajmining 10,6 [1] foizini tashkil etgan. To’qimachilik sanoati O‘zbekistonning yalpi ichki mahsulotida (YaIM) 5,4 foiz ulushga ega bo’lib, sanoat sohasidagi ulushi 10,4 foizni tashkil etmoqda. Shu bilan birga O‘zbekiston to’qimachilik mahsulotlarini 80 dan ortiq mamlakatga eksport qilmoqda. 2023-yilda eksport hajmi 3,4 milliard dollarga yetgan. Demak mamlakatda to’qimachilik klasterlarining rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, yangi ish o’rinlari yaratish va eksport hajmini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Andijon viloyatida esa 17 ta yirik to’qimachilik klasterlari tashkil etilgan bo’lib, ular asosan paxta xomashyosini yetishtirish va qayta ishlash bilan shug’ullanadi (1-jadval).

1-jadval

Andijon viloyati to’qimachilik klasterlarining iqtisodiy ko’rsatkichlari

Yil	Klasterlar soni	Ekin maydoni (ming gektar)	Ishlab chiqarish quvvati (ming tonna)	Ishchilar soni (ming)	Mahsulot hajmi (trln so’m)	Eksport (mln AQSh doll.)
2019-y.	10	65,0	85	30	11,2	250
2020-y.	12	72,0	95	33	12,8	295
2021-y.	14	80,0	105	37	14,9	340
2022-y.	15	86,0	115	39	16,5	370
2023-y.	16	91,0	125	42	18,0	420
2024-y.	17	99,2	130	45	20,0	488

2019–2024-yillar davomida Andijon viloyati to’qimachilik sanoatida barqaror o’sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Jadval ma’lumotlariga ko’ra, 2019-yilda 10 ta klaster faoliyat ko’rsatgan bo’lsa, 2024-yilga kelib ularning soni 17 taga yetdi. Bu davr mobaynida paxta yetishtirish va qayta ishlashga ajratilgan umumiy maydon 65 ming gektardan 99,2 ming gektarga oshdi, ishlab chiqarish quvvati esa 85 ming tonnaga teng bo’lgan holatdan 130 ming tonnaga yetdi.

Klasterlar tarkibidagi ishchilar soni ham ortib bordi: 2019-yilda 30 ming kishi band bo’lgan bo’lsa, 2024-yilga kelib bu ko’rsatkich 45 ming nafarga yetdi. Shu bilan birga, mahsulot hajmi 11,2 trln so’m dan 20 trln so’m ga o’sdi, ya’ni 1,8 martaga oshdi. Eksport hajmi ham keskin o’sish tendensiyasiga ega: 2019-yilda 250 mln AQSH dollarini tashkil etgan bo’lsa, 2024-yilda 488 mln dollarga yetdi, ya’ni qariyb ikki barobar o’sish kuzatildi.

Ushbu natijalar Andijon viloyatida to’qimachilik sanoati klasterlarini tashkil etish orqali iqtisodiy samaradorlikning ortganini ko’rsatadi. Xususan, ishchi kuchi bandligi oshishi, mahsulot

hajmi va eksport geografiasining kengayishi viloyat sanoatida klaster tizimining samarali ishlayotganini anglatadi. O‘zbekiston sharoitida ham klasterlashuv natijasida mahsulot hajmi 11,2 trln so‘mdan 20 trln so‘mga, eksport esa 250 mln dollardan 488 mln dollargacha o‘shishi bu nazariyaning amalda tasdig‘ini ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, ishchi-xodimlar sonining 30 mingdan 45 ming nafargacha ko‘payishi Italiya va Koreya kabi mamlakatlar tajribasida kuzatilgan ijtimoiy samaradorlik mezonlari bilan uyg‘unlikdadir. Xususan, texnologik zanjirning ip-gilamdan tayyor kiyim-kechakkacha to‘liq shakllanishi Yaponiya klaster modellaridagi innovatsion yechimlarni eslatadi. Shu orqali mahalliy ishlab chiqarishda qo‘shilgan qiymat oshirilib, eksport raqobatbardoshligi ta‘minlanmoqda. Ushbu natijalar O‘zbekistonda klaster modelini yanada takomillashtirish uchun xalqaro amaliyotga asoslangan istiqbolli yo‘nalishlarni belgilash zarurligini ko‘rsatadi. Andijon viloyatida esa to‘qimachilik klasterlari mahsulot hajmi va eksportdagi o‘shish bilan birga, ishlab chiqarish texnologiyalari, qayta ishlash darajasi, innovatsion va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlik darajasi bo‘yicha rivojlantirilsa, bu klasterlarning ustuvor raqobatbardoshligi saqlanadi va yanada oshadi. Rivojlangan davlatlarda klaster siyosati davlat tarafidan tartibli, strategik rejalar asosida, ta‘lim, ilmiy tadqiqot, investitsiya va eksportni qo‘llovchi institutsional infratuzilma bilan qo‘llab-quvvatlanadi. Shu bilan birga Klasterlar sonidan ko‘ra ularning sifat ko‘rsatkichlariga (innovatsiya, texnologiyalar, eksport hajmi) ko‘proq e‘tibor qaratish, xalqaro tajribadan kelib chiqib, klasterlarning ichki kooperatsiyasini kuchaytirish va “qiymat zanjiri”ni to‘liq yo‘lga qo‘yish, ishlab chiqarish quvvatlarining o‘shish sur‘ati pasayib ketmasligi uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va modernizatsiya dasturlarini kengaytirish va eksportdagi o‘shishni uzoq muddatli saqlab qolish uchun diversifikatsiya – ya‘ni tayyor mahsulotlar ulushini oshirish, yangi bozorlarga kirish orqali Andijon viloyatidagi to‘qimachilik klasterlari nafaqat hududiy iqtisodiy rivojlanishga, balki O‘zbekistonning umumiy sanoat raqobatbardoshligiga ham katta hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-yanvardagi “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar”gi PF-6-sonli Farmoni.
3. Porter, M. E. (1990). *The Competitive Advantage of Nations*. New York: Free Press. - pp. 71–91.
4. Krugman, P. (1994). *Competitiveness: A Dangerous Obsession*. Foreign Affairs, Vol. 73, No. 2, pp. 28–44.
5. N. Grashof Spill over or Spill out?—A multilevel analysis of the cluster and firm performance relationship *Ind. Innov.*, 28 (2021), pp. 1298-1331
6. E. Giuliani, C. Pietrobelli, R. Rabellotti Upgrading in global value chains: lessons from Latin American clusters *World Dev.*, 33 (2005), pp. 549-573 <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0305750X05000033>
7. J. Alegre, R. Chiva Linking entrepreneurial orientation and firm performance: the role of organizational learning capability and innovation performance. *J. Small Bus. Manag.*, 51 (2013), pp. 491-507, 10.1111/jsbm.12005
8. Н.О.Несмачных «Кластерная политика в стратегии инновационного развития России и зарубежных стран». // *Экономические науки*. – 2014 г. – № 9. Ст. 162–165.
9. Н.Н.Кучин, Н.В.Калеев. «Кластерные технологии как инструмент совершенствования работы молочно-продуктового подкомплекса региона» *Вестник НГИЭИ*. 2020 г. № 6. Ст 65-72.
10. Marifovich, M. M. (2023). THE EFFECT OF PRODUCT DIVERSIFICATION ON THE ECONOMIC EFFICIENCY OF INDUSTRIAL ENTERPRISES. *Deutsche Internationale Zeitschrift für Zeitgenössische Wissenschaft*, (68).
11. Mukhtarov, M. (2023). Ways to increase the economic efficiency of textile industry enterprises based on product diversification. *Economics and Education*, 24(5), 274-278.